



INGLIZ TILIDA ESHITISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Shomirzayeva Sevinch Usmon qizi

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada ingliz tilini o'qitishda eshitish qobiliyatini ahamiyati xususidagi ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Multiple Choice, Summary, BBC 6-minute English, CEFR, IELTS, podcast, Self-Study.*

Dunyo bo'ylab keng tarqalgan va eng ko'p muloqot qilinadigan xorijiy til bu shubhasiz ingliz tilidir. Bu tilda muloqot qilish uchun boshqa tillar kabi to'rtta qobiliyatni rivojlantirish talab etiladi. Bular: Gapirish, Eshitish, Yozish va O'qish qobiliyatlaridir. Shuningdek til aspektlari hisoblangan Grammatika, Lug'at va

Talaffuz ham muhim hisoblanadi. Ko'pchilik til o'rganuvchilar Eshitish qobiliyatiga qaraganda boshqa qolgan 3 ta qobiliyatini rivojlantirishga ko'proq e'tibor qaratadilar. Shuningdek bu qobiliyatni talabalar qay darajada

tushunayotganliklarini bilish va baholash ham o'ziga xos qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Aslida esa biz til o'rganuvchilar sifatida eng avvalo eshitish qobiliyati orqaligina tilni o'zlashtira boshlaymiz. Nafaqat xorijiy til nuqtayi nazaridan balki o'z ona tilimizni ham avval eshitib so'ng unda muloqot qilish qobiliyatimizni shakllantiramiz. Agar e'tibor qaratadigan bo'lsak biz hali kichik bola vaqtimizdanoq atrofdagi odamlar suhbatini tinglaymiz, avval kichik bo'g'inlar keyin esa kichikroq so'zlarni aytamiz va ularni bir biriga bog'lab gap tuzib o'zimizni fikrimizni ifodalashga o'tamiz. Aniqroq aytadigan bo'lsak gapirish qobiliyatimizning asosida shubhasiz eshitish qobiliyatimizning qanchalik rivojlanganligi yotadi. So'nggi yillarda bu borada ko'plab tadqiqotlar o'tkazildi va shuni anglab yetgan ko'pgina xorij ekspertlari masalan amerikalik mutaxassis A.J.

Hoge ham shu yo'sinda ingliz tilini o'rgatishga asoslangan o'z kurslar va video darsliklarini ishlab chiqarmoqda. Nafaqat xorijda balki mamlakatimizda ham ko'plab Self-Studyga asoslangan o'qitish materiallarini tayyorlovchi Booknomy, Tedbook kabi bizneslar ham tobora o'z mijozlariga ega bo'lib bormoqda. Bu yuqorida keltirilgan misollar eshitish qobiliyati til o'rganish jarayonida qanchalik ahamiyatga egaligini yana bir bor isbotlaydi. Eshitish qobiliyatini tekshirishga oid bir qancha turdagi savol shakllari mavjud. Ulardan eng ko'p tarqalganlari Variantli test savollari(Multiple Choice Questions), Nuqtalar o'rnini to'ldirish xaritada yoki summary qismda (Fill in the gaps in the



maps or Summary), To'g'ri yoki Noto'g'ri savol turi (True/False or Yes/No) kabi jami 14 ta savol turlari mavjud. Bular o'z o'rnida talabalar bilim darajasidan kelib chiqqan holda tanlanadi va sohaga mos ravishda qayta ishlab chiqilishi mumkin. Bu qobiliyatni yaxshiroq rivojlantirish uchun ko'plab, turli materiallar mavjud. Xususan ingliz tili o'rganuvchilar uchun turli xil BBC 6-minute English kabi podkastlar mavjud. Undan tashqari deyarli hamma ingliz tilini o'rgatishga asoslangan kitoblarda Listening ya'ni eshitishni kuchaytirishga qaratilgan mashqlar bor. Agarda tilni yanayam yaxshiroq o'rganishni xohlasak, internet eng katta ma'lumot bazasi bo'lib unda o'sha o'rganilayotgan tildagi kinolar, teleshowlar, maxsus video va ta'limiy materiallar mavjud. Yana bir quvonarli holat shundaki, nafaqat vatanimizdagi ingliz tili o'rgatuvchi ustozlar balki haqiqiy inglizlar ham o'z ona tilini o'rgatishga bag'ishlangan ko'pgina videolarni joylab o'z blog kontentlarini boyitib bormoqda.

Bu albatta til o'rganuvchilar uchun juda ham foydalidir. Ingliz tilini tekshirishga qaratilgan Xalqaro va milliy imtihon tizimlarida boshqa qobiliyatlari kabi Eshitish ham tekshiriladi, aniqrog'i imtihon topshiruvchining xorijiy tilda qanchalik yaxshi eshitib tushuna olish darajasi baholanadi. Xalqaro imtihonlardan eng mashhurlari IELTS bu Britaniya imtihon tizimi hisoblansa, TOEFL esa Amerika test tizimidir.

IELTS imtihonidagi 1 ta bo'lim aynan Eshitish qobiliyatini tekshirishga qaratilgan bo'lib u 40 ta savoldan tashkil topadi va 1 soat bu testni ishlab chiqish uchun vaqt ajratiladi. Bu testni tashkil etish uchun maxsus belgilangan Britaniya konsulligi, Avstraliyaning IDP tashkiloti va Cambridge universitetlarigagina rasman ruxsat berilgan. Bu test materiallari Angliyadagi Cambridge universiteti mutaxassislari tarafidan tuzib chiqilib, Eshitish qismida faqat ingliz millatiga mansub bo'lgan insonlar nutqidan foydalaniladi. O'zbekistonda ham moslashtirilgan xorijiy til bilish darajasini tekshiradigan test tizimi mavjud bo'lib, u biroz biz uchun moslashtirilgan CEFR imtihonidir. Unda asosan 35 ta savol bo'ladi va uni yechish uchun 1 soat vaqt beriladi. Xalqaro IELTS imtihonidan bizning milliy CEFR imtihon tizimimizning asosiy farqi, IELTS imtihonida audioalar 1 marta,

CEFRda esa 2 marta qo'yib eshittiriladi. IELTS imtihonida til o'rganuvchining til bilish ko'nikma va qobilyatlari C2 daragacha baholansa, milliy CEFR imtihonimizda bu C1darajagacha baholash bilan cheklangan. Test tuzish albatta yetarlicha qiyin jarayon ayniqsa xorijiy tilda test tuzish. Chunki test tuzuvchi shaxs til o'rganuvchilarning umumiy bilim darajasidan kelib chiqib bunga yondashishi kerak. Masalan Eshitish qobiliyatini tekshirishda turli xil shevalardan foydalanilsa



masalan Angliyadagi Glasgow shevasi kabi bu albatta imtihon topshiruvchida tushunish uchun qiyinchilikni yuzaga keltiradi. Shu sababli adabiy ingliz tilida gapirilgan nutqlardan foydalanishga ko'proq e'tibor qaratiladi. Vaqt masalasi ham muhim omil hisoblanadi ayniqsa javoblar ketma-ketligida. H.Douglas Brown taklif etishicha, har bir to'g'ri javob o'rtasida taxminan 10-15 sekund vaqt bo'lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Brown H.D. "Language Assessment" Pearson nashriyoti, 2004
2. Brown H.D. "Principles and classroom practices" Pearson nashriyoti, 2004